

**Po‘latova Shahnoza Ikrom qizi**

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg‘ona filiali Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bosh mutaxassisi.*

**Xudaybergenova Elmira Umaraliyevna**

*Tashkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada voleybol sport turining strategiya va taktikasi, jamoaning asosiy tarkibi, uning tuzilishi, taktika va strategiya bir-biri bilan bog‘liq-ligi, vazifasi, kombinatsiyalari, o‘yin intizomi, templari, o‘yinni ixtisosligi, tarkibini yaratish, o‘yin sardorining vazifalari, jamoani birlashtira olishi haqida fikr bildirib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *strategiya, taktika, kombinatsiya va uning turlari, templar, psixofizilogik, mohiyat, afferent, strategik reja, sport razvedkasi, nazorat, ixtisoslik, jamoa va jamoa tarkibi, sardor.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается стратегия и тактика волейбольного спорта, основной состав команды, ее структура, тактика и стратегия взаимосвязаны-работа, задача, сочетания, игровая дисциплина, темп, специализация игры, построение состава, задачи капитана игры, умение сплотить команду.*

**Ключевые слова:** *стратегия, тактика, сочетание и его виды, темп, психофизиологический, сущность, афферент, стратегический план, спортивная разведка, контроль, специализация, состав команды и коллектива, капитан.*

**Annotation:** *this article reflects on the strategy and tactics of the volleyball sport, the main structure of the team, its structure, tactics and strategy are associated with each other-league, task, combinations, game discipline, Templar, game specialization, composition creation, tasks of the captain of the game, the ability to unite the team.*

**Keywords:** *strategy, tactics, combination and its types, templar, psychophysiological, essence, afferent, strategic plan, sports intelligence, control, specialization, team and team composition, captain.*

**Strategiya** – yunoncha so‘z bo‘lib, aksariyat harbiy sohaga mansub bo‘lib qo‘shinni belgilangan maqsad sari boshlash, olib borish, unga ustalik bilan erishish san‘atini ifodalaydi.

Sport sohasida va aynan voleybolda mazkur atama muayyan sportchi yoki jamoaning tayyorgarlik jarayonini boshqarish hamda uni musobaqalar davomida g‘alabaga olib borish san‘atini anglatadi.

Strategiya: jamoaning asosiy va o‘rinbosar tarkibini tuzish - jamlash, musobaqani boshqarish usullari, vositalari va shakllarini ishlab chiqish, muayyan uchrashuvning

(musobaqaning) taktik rejasini tuzish, bo'lajak o'yinning nazariy va amaliy andozasini (nushasini) qo'llab ko'rish hamda o'tkazilayotgan musobaqalarni atroflicha tahlil qilish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari strategiyaga raqib jamoasi, uning o'yinchilari haqida ma'lumotlar yig'ish, razvedka (ayg'oqchilik) asosida raqibning butun imkoniyat va xususiyatlarini bilib olish masalalari kiradi. **"Taktika"** atamasi ham yunoncha so'z bo'lib, tom ma'noda "tartibga keltirish" yoki "ma'lum tartibda joylashtirish" tushunchasini anglatadi. **"Taktika"** so'zi **"strategiya"** atamasi kabi harbiy sohaga doir bo'lib, qo'shinlarni maqsadga muvofiq tuzish va ularni og'ir vaziyatlarga qaramasdan g'alaba cho'qqisiga yetaklash san'atini nazarda tutadi.

Voleybolda taktika tushunchasi o'yin vaziyatini e'tiborga olgan holda, samarali va maqsadga mos shakl, usul, hamda vositalarni qo'llash asosida g'alabaga erishish san'atini bildiradi.

**"Taktika"** - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilida "tartib", "tartiblashtirish" ma'nosini anglatadi.

**Voleybolda o'yin taktikasi deb**, muayyan jamoaning ikkinchi bir jamoa ustidan yakka, guruh va jamoa harakatlari yordamida g'alabaga erishish san'atiga aytiladi.

**Taktikaning asosiy vazifasi** muayyan raqib jamoaga nisbatan mavjud vaziyatga qarab g'alaba sari qo'llaniladigan o'yin vositalari, usullari va shakllarini aniqlab, qo'llay olishdan iborat.

**Taktik kombinatsiya** - bu bir o'yinchiga hujum qilishi uchun qulay sharoit yaratib berishga qaratilgan bir necha o'yinchining harakat faoliyatidir.

**O'yin intizomini** - har bir o'yinchi faoliyatining jamoa faoliyatiga bo'ysunishi, bo'lajak o'yinda rejalashtirilgan taktik ko'rsatmalarni amalga oshirish, o'yin qoidalari va umuminsoniy hislatlarga amal qilish va hokazo.

Zamonaviy voleybolda qo'llaniladigan atamalar.

**Birinchi temp** atamasi hujum kombinatsiyasini birinchi bo'lib, boshlaydigan o'yinchiga tegishli bo'lib, u deyarli "past" va tez uzatiladigan to'p bilan hujum uyushtiradi.

**Ikkinchi temp** - kombinatsiyani ikkinchi bo'lib, boshlaydigan o'yinchi. Bu o'yinchi hujumni asosan baland uzatiladigan to'p asosida tashkil etadi.

Bir tempda tashkil etiladigan hujumda bir yo'la ikki yoki uch o'yinchi zarba berish uchun bir vaqtda sakraydilar.

**"To'lqin"** kombinatsiyasida ikki hujumchi ishtirok etadi. Birinchi hujumchi sakrab, yerga tushayotganda, ikkinchi hujumchi sakrab zarba beradi.

**"Eshelon"** kombinatsiyasida ikki hujumchi ketma-ket sakraydi, to'p hujumchilarning qaysi biriga qulay uzatiladigan bo'lsa, shu hujumchi zarba beradi.

**"Krest"** kombinatsiyasida ikki hujumchi bir-birining harakat yo'nalishini kesib, muvofiq uzatilgan to'pdan muvofiq hujumchi zarba beradi. Shu kombinatsiyani turli shaklda ijro etish mumkin (qayta "Krest", kichik "Krest" katta "Krest").

Morita fintini birinchi bor 1969 yilda GDRda o'tkazilgan Jahon Kubogida yapon o'yinchisi **Morita** qo'llagan.

Bu fint birinchi “yolg'on” sakrashdan so'ng ikkinchi bor to'liq sakrab zarba berishdan iborat. Maqsadli - to'siq qo'yuvchi raqib o'yinchi pastga tushayotganda sakrab zarba berish, ya'ni to'siqsiz zarba berish bilan ifodalanadi.

Bundan tashqari, ushbu kombinatsiyalarning turli nusxalari va shakllari mavjud. Quyida o'yin taktikasining tasnifi – turkumlarga bo'linishi ifodalangan.

Taktikaning yakka, guruh va jamoa shakllari mavjud. Taktikasining usullari o'yin tizimlaridan va kombinatsiyalardan iborat. Taktikaning vositalariga esa bu o'yin malaka (priyom)lari va ularni barcha turlari kiradi.

**Taktikaning psixofiziologik va strategik mohiyati** - muayyan musobaqalar-ga mo'ljallangan taktik yo'nalish, taktik shakl, usul va vositalar oldindan rejalash-tirilgan strategik dasturga bo'ysinish lozim. Barcha taktik harakatlar taktik bilimlar, fikrlash, vaziyatni to'g'ri baholash, maqsadga muvofiq qaror qabul qilish, jismoniy qobiliyat, texnik mahorat va iroda imkoniyatlariga asoslanishi kerak.

Taktik harakat kibernetika nuqtayi nazaridan murakkab vaziyatda eng samarali qarorni topish va unga munosib harakat qilish bilan bog'liq bo'lgan o'z-o'zini sozlab boshqaruvchi faoliyatini anglatadi.

**Taktik harakat MNSning afferent** - efferent nerv retseptorlari, tolalari ishtirokida tashqi muhit taassurotlarini qabul qilish, xotirada saqlash, tahlil qilish, vaziyatga munosib ravishda qayta ishlab motivizatsiyani qoniqtiruvchi qarorga kelish kabi faoliyatlar bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik jarayondan iboratdir.

Taktik harakatning samarali bo'lishida bosh miya yarim sharlarini vaziyatini oldindan bilish (aks ettirish) qobiliyati alohida o'rin egallaydi. Mazkur qobiliyat musobaqa vaziyatlariga nisbatan to'g'ri qarorga kelish va maqsadga muvofiq taktik harakat qilish samarasini oshirishga imkon yaratadi. Albatta, bunday qobiliyatini takomillashuvi sportchini o'yin tajribasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quv-mashg'ulotlar jarayonida hali ro'y bermagan vaziyatni oldindan fahmlash, unga mos qarorni tayyorlash va tahminiy harakat rejasini xotirada aks ettirish qobiliyatlarini rivojlantirishga oid mashqlarni tanlash va ulardan unumli foydalanish juda katta ahamiyatga ega. Yuqori darajada takomillashgan mazkur qobiliyat taktik va strategik rejani amalga oshirishda muhim poydevor bo'lib hisoblanadi.

Oldindan fahmlash va vaziyatga munosib harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga oid mashqlarni qo'llashda 3 ta jarayondan iborat faoliyatni bajarish zarur bo'ladi:

1. Musobaqa vaziyatini “hazm” qilish (qabul qilish, fahmlash).
2. Maxsus taktik vazifani fikran bajarish.
3. Taktik vazifani harakat bilan bajarish.

Yuqorida muhokama qilinayotgan taktik va strategiya poydevori bo'lmish psixofiziologik jarayon akademik **P.K.Anyuxin (1974)** kashf etgan funksional sistema

nazariyasi bilan bog'liqdir. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, o'yin jarayonida samarali taktikani, hamda tayyorgarlik davrida strategik rejani amalga oshirish maxsus nazariy bilim va amaliy malakalarning yuqori darajada takomillashuvini taqozo etadi.

Jamoa tayyorgarligining umumiy strategiyasi tartib bilan amalga oshiriladigan bir necha tadbirlardan iborat bo'ladi va quyidagi andoza - tasnif sifatida ifodalanishi mumkin.

**Jamoa tayyorgarligining umumiy strategiyasi va taktikasi** - strategik ayg'oqchilar (razvedka) - jamoa tayyorgarligining strategik rejasi - jamoani jamlash va jamlab borish - jamoaning taktik tayyorgarligi o'quv - trenirovka mashg'ulotlari, ko'rik o'yinlari, tayyorlov musobaqalari, asosiy musobaqalar, moddiy ta'minot.

**Tibbiy va pedagogik nazorat** - sport bazasi, uskunarlar, anjomlar va sport formasi (kiyimi) – shifokor nazorati, taktik tayyorgarlikni test yordamida baholash, tanlangan strategik yo'nalishning yakuniy natijalarini tahlil qilish.

**Strategik reja va sport razvedkasi** - strategiya – ma'lum tartibda amalga oshiriladigan va mantiqan bir-biriga bog'liq bo'lgan bir qancha masalalarini o'z ichiga oladi. Jumladan, strategiya muayyan sport turi bo'yicha moddiy omil yara-tish: zamonaviy sport inshootlarini barpo qilish, uskuna, anjom, sport moslamalari va sport kiyimlari bilan ta'minlash masalalarini o'z ichiga oladi.

Strategik reja tayyorgarlikning yo'nalishi, musobaqalarda ishtirok etish tajribasini o'rganish, raqib klubi va jamoasi haqida ma'lumotlar yig'ish tadbirlari bilan bog'liqdir. Sportchilarni tayyorlash strategiyasi borasida jamiyatga, sport maktabiga yosh, iste'dotli bolalarni tanlash va jalb qilish alohida ahamiyatga egadir.

Strategik rejada qo'yilgan maqsadga yuqori samara bilan erishish, aksariyat strategik razvedkaning natijalariga bog'liq bo'ladi.

Strategik razvedka raqib o'yinchilarning individual jismoniy ruhiy, ijtimoiy, taktik, texnik xususiyatlarini mukammal bilib olishga erishish, raqib jamoasining taktik imkoniyatlarini, uning yutuq va kamchiliklarini, hatto jamoaning mashg'ulot o'tkaziladigan inshootlari sharoitini, u yerdagi iqlim va texnik omillarni bilishni taqozo etadi.

Strategik razvedka nafaqat raqib sportchilarni haqida, balki jamoa trenerlari, uqalovchi shifokorlari va rahbarlari haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Strategik razvedka qanchalik samarali va sifatli tashkil qilinsa, shunchalik sport natijalarini, hamda, umuman, sport muvaffaqiyatini oldindan yana aniqroq rejalashtirish mumkin bo'ladi.

**O'yinchining o'yin ixtisosligi va jamoa taktikasini tuzish** - voleybol jamoasi tarkibidagi o'yinchilar musobaqa davomida maydonda joylashishlariga qarab barcha mavjud o'yin funksiyalarini bajaradilar. Shu bilan bir qatorda har bir o'yinchi muayyan o'yin funksiyasiga ixtisoslashgan bo'ladi, ya'ni uni o'ziga xos o'yin "kasbi" bo'ladi. Masalan, asosiy zarba beruvchi, bog'lovchi o'yinchi (to'p uzatuvchi) va hokazo.

O‘yinchining o‘yin “kasbi” uning jismoniy, morfologik, texnik va taktik imkoniyatlariga qarab yillar davomida shakllanib, borgan sari ixtisoslasha boradi.

Zamonaviy voleybolda o‘yinchi o‘zining tanlangan (ixtisoslashgan) o‘yin “kasbi”ni yuqori saviyada mahorat bilan ijro etish bilan birga, o‘zga o‘yin funksiyalarini ham maromiga yetkazib bajarishi taqozo etiladi. Demak, yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga qaratilgan ko‘p yillik o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarida o‘rgatish va takomillashtirilgan o‘yin funksiyasi asosida amalga oshiriladi.

**Jamoa tarkibini yaratish** - jamlash ham mazkur masala bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy voleybolda jamoa tarkibi aksariyat 4-2 yoki 5-1 tizimi asosida tuziladi. U 4 ta hujumchi, 2 ta bog‘lovchi - to‘p uzatuvchi o‘yinchilardan iborat bo‘ladi. Mazkur o‘yinchilar quyidagicha joylashishadi 4-1, 3-6, 2-5.

4-1-asosiy hujumchilar, (2 templi hujumchilar), 3-6-yordamchi hujumchilar, (1 templi hujumchilar) 2-5- bog‘lovchi o‘yinchilar. Agar jamoa tarkibi 5-1 tizimi asosida tuzilgan bo‘lsa unda 5 ta hujumchi va 1 ta bog‘lovchi o‘yinchi maydonda faoliyat ko‘rsatib turadi.

**O‘yin faoliyatida sardorning ahamiyati** - voleybol o‘yinida barcha sport o‘yinlari turlaridagidek, murabbiy o‘z shogirdlari bilan faqat o‘yin oldidan, parti-yalar orasida, tanaffus vaqtida qisqa muddatli muloqotda bo‘lishlari mumkin. Ma-salaning mazkur tartibda amalga oshirilishi musobaqa qoidasi bilan belgilangan. Shuning uchun o‘yin davomida o‘yinchilar faoliyati boshqarish funksiyasini jamoa sardoriga yuklatiladi.


Sardor murabbiyning o‘yinga bergan ko‘rsatmasini, taktik va strategik rejasini muayyan o‘yin davomida amalga tatbiq qilishi kerak bo‘ladi. Ayrim vaqtlarda vaziyatga qarab o‘yinning taktik yo‘nalishini boshqarish yana sardorga yuklatiladi. Bunda sardor murabbiyning muntazam beriladigan (mumkin bo‘lgan vaqtda) qo‘shimcha ko‘rsatma va yo‘riqlariga asoslanadi. Sardorning o‘yinchilar bilan bo‘ladigan aloqasi, ko‘rsatmasi so‘z, imo-ishora va boshqa belgilar vositasida amalga oshiriladi.

Xulosa qilsak, bundan ko‘rinib turibdiki, sardorlik funksiyasining sifatli va samarali ijro etilishi, ham yaxshi natija berishi aksariyat sardorning nafaqat insoniy obro‘sigga, balki uning o‘yin mahoratiga bog‘liqdir. U yuqori malakaga, mahoratga ega bo‘lishidan tashqari, o‘tkir zehni, zukko, vaziyatni oldindan payqovchi, tez va to‘g‘ri fikrlovchi bo‘lishi lozim. Sardorda oliy insoniy sifatlar mujassamlashgan bo‘lishi, tashkilotchilik qobiliyati, yo‘lboshchilik san‘ati musobaqa jarayonida alohida o‘rin egallaydi.

Jamoa sardorlari aksariyat jamoadoshlariga nisbatan yoshi nuqtayi nazaridan kattaroq, tajribaliroq bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Sardorlik “lavozimi” voleybolning amaliyoti va nazariyasida ilmiy tomondan puxta o‘rganilmagan bo‘lib, ilmiy muammo sifatida o‘z yechimining tadqiqot asosida hal etilishini kutmoqda. Mazkur “lavozim” mohiyati va mazmunini shakllantirish yoki

yuqori mahoratli sardorni tarbiyalash murabbiy - mutaxassislarga to‘g‘ridan - to‘g‘ri bog‘liqdir.



#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Voleybol nazariyasi va uslubiyati – OO‘YU lari uchun darslik. Toshkent 2011.
2. E.U.Xudaybergenova - Malakali voleybolchi talabalarda to‘p kiritish aniqligini an’anaviy mashg‘ulotlar davomida shakllantirish dinamikasi.
3. S.M. Boyxo‘jayev - Malakali voleybolchilarga xos jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent – 2021
4. Sh.I.Po‘latova - Voleybol bilan shug‘ullanishning inson organizmiga ijobiy ta’siri. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10009881>. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers

3. Sh.I.Po‘latova - Voleybolchilar tayyorlash jarayonini boshqarish. issn 2181-351 volume 2, special issue 12 october 2023, <https://erus.uz/>
4. Pulatov A.A., Isroilov SH.X., Qurbanova M.A. Voleybol // J.T. III kurs talabalari uchun ixtisoslik fanidan ma’ruza matnlari. – T., 2003. - 44 b.
5. Sh.I.Po‘latova - Voleybol o‘yinini o‘rgatishning pedagogik asoslari. Vol.2 No.11 (2023): Educational Research in Universal Sciences (ERUS).
6. Sh.I.Po‘latova - Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbining o‘ziga xos xususiyatlari va talablari. E Conference Zone. 2022/11/22
7. Sh.I.Po‘latova - Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbiga qiziqishini shakllantirish samaradorligini oshirish shartlari va metodlari. vol. 2 no. 8 (2023): theory and analytical aspects of recent research.
8. Sh.I.Po‘latova - Ways to determine students' interest and abilities in the profession of a physical education teacher. 2023: icde-turkey-jan
9. Sh.I.Po‘latova - Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini jismoniy tayyorgarligini oshirishda sport to‘garaklarining o‘rni. 2022: icde-turkey-september.
10. Sh.I.Po‘latova - Принадлежность к разным возрастным группам особенности тренировки волейболистов. ISSN 2181-0664 Doi journal 10/26739/ 2181-0664 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2023-7-2>
11. Sh.I.Po‘latova - Zamonaviy voleybol o‘yinida sakrovchanlikni rivojlantirishning dolzarbligi. Ijodkor o‘qituvchi jurnali. 5 yanvar / 2024 yil / 35 – son.
12. Sh.I.Po‘latova - Yosh voleybolchilarda tezkor-sakrovchanlik sifatini harakatli o‘yinlar yordamida o‘stirish samaradorligi. Ijodkor o‘qituvchi jurnali. 5 yanvar / 2024 yil / 35 – son.